

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TASVIRIY SAN'AT BILAN INTEGRATSIYALASH*Masharipova Sevinch**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining**boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-D kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda tasviriy san'atni o'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati, predmetlararo uzviylikni o'rnatish yo'l-yo'riqlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, uzviylik, dars, tasviriy san'at, kreativlik, pedagogik mahorat.

Integratsiya - bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan.

Ta'lim integratsiyasi - fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha; ushbu ta'riflarning umumiylik tomoni - integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat. Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o'zining rivojini integratsiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlarini yaxlit, bir butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalashda samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish savodxonligi, tabiiy fan, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga yetish ko'rib chiqiladi va mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolani mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bundan tashqari, bolada ijodiylik ya'ni kreativ fikrlash olish salohiyati ham rivojlanib boradi.

Masalan: Daraxtda 3 ta qush bor edi. Ularga yana 2 ta qush kelib qo'shildi. Daraxtda jami nechta qush bor? Bu masala asosida o'quvchilar qushlarni chizadi va ularda masalani yechish uchun aniq tasavvurlar shakllanadi. Bunda o'quvchilar aynan mukammal shaklga ega bo'lgan qushlarni chizishi shart emas, albatta. Bu faqat ularda berilgan masalaning mohiyatini anglashi uchungina zarur. Yoki quyidagi shunga o'xshash masalani ko'rib chiqamiz:

Bir to'plamda 6 ta finjon bor. Bir qutida 5 ta finjonlar to'plami bor. Ikkitada qutida jami nechta finjon bor? Ushbu masalaning yechimini topish uchun o'quvchilarda avvalo tasavvur hosil qilinishi kerak. Dastlab bir to'plamdagi finjonlarni kichikroq yashikda tasvirlaymiz. So'ngra shunday kichik yashiklarda katta bir qutida 5 tasini tasvirlaymiz. Masalaning aniq yechimini

olish uchun xuddi shunday katta qutidan ikkitasidagi finjonlar sonini aniqlash kifoya. Bu usul orqali o'quvchilar keyinchalik avtomatik turda hisoblay olish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bola bir darsning o'zida fasllar, geometrik shakllar, to'plam haqida ma'lumotga ega bo'ladi, mevalar haqida biladi va rasm chizadilar. Shunday qilib, o'quvchi birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va uzoq vaqt esda saqlab qoladilar.

Umuman olganda integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak. Boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtai-nazaridan juda muhim bo'lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'yimo'qda. Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularning mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Integrasiyalashtirilgan darslar bo'lalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang'ich sinflarda darslarning integratsion bog'lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olishlarimiz o'rtasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Mirxayitova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Farg'ona – "Farg'ona nashriyoti", 2021.
2. D.M.Jamoliddinova, S.S.Meliboyeva. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: Darslik. Toshkent – "Toshkent nashriyoti", 2022.
3. I.V.Repyova. Matematika. 2-sinf darslik. Toshkent – "Novda nashriyoti", 2023.
4. R.Mavlonova, D .A bdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Fan va texnologiya", 2009.
5. Sh.S.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova. Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.

